

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi*

Kichik biznesni yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida ekologik toza maxsulot ishlab chiqarish salmog'ini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

Ipilachilik tarmog'ining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali kompleks bashorat qilish uslublari ishlab chiqildi.

Pillachilik tarmog'i rivojlanishini bashorat qilishda iqtisodiy - matematik usullar guruxlash usullari, ekspert baxolash, ekstrapolyatsiyalash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, pillachilik tarmog'ida ozuqa bazasi rivojlanishi, pilla tayyorlash xajmi va xosildorligining kelgusidagi o'zgarishini eksponensial yaqinlashish usullari orqali xam bashorat qilish mumkin.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning bashorat qilish jarayonida olingan natijalar buyicha extimollik bilan mos tushuvchi ishonch oraliqlari va ularning ishonchlilik darajasini tekshirishda quyidagi formulalardan foydalanildi:

$$\rho = \rho \pm t\alpha S\rho; (1) \quad \rho - t\alpha S\rho < \rho < + t\alpha S\rho, (2)$$

bu erda, $S\rho$ — o'rtacha kvadratik xatolik bo'lib, $S\rho = S/\sqrt{n}$ formula p buyicha hisoblanadi, ehtimollik darajasi 95% deb olinadi.

Pillachilik tarmog'i rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar, ya'ni tarmoq ozuqa bazasi va pilla tayyorlash xajmini bashorat qilishda tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan o'zaro bog'liq iqtisodiy — matematik modellar va dasturlar majmuidan foydalanildi.

Yuqorida keltirilgan xolatlar buyicha pillachilik tarmog'ini istiqbolda rivojlanishini bashorat qilishda o'zaro aloqada bo'lgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar e'tiborga olindi. Ushbu tarmoqda iqtisodiy ko'rsatkichlarni bashorat qilishda ozuqa bazasi va pilla tayyorlash xajmi muhim o'rin tutadi.

Dasturlar majmui yordamida kompyuterda 2023-2028 yillarda respublika pillachilik tarmog'ida yaratiladigan pilla quttisi va pilla tayyorlash xajmini aniqlash bo'yicha bashorat qilindi.

"Yashil iqtisodiyot" -bu odamlar farovonligini oshirishga olib keladigan iqtisodiyot vaxavflarni sezilarli darajada kamaytirish bilan birga ijtimoiy tenglikni mustahkamlash, atrof-muhit va ekologik resurslarning tanqisligioldini oluvchi siyosat hisoblanadi.¹

UNEP (va Buyuk Britaniya kabi milliy hukumatlar) tomonidan tabiiy kapital g'oyalari va "yashil iqtisodiyot" shiori ostida to'liq xarajatlarni hisobga olish g'oyalariga tobora ortib borayotgan majburiyatlar o'rtasidagi farqlarni yo'q qilishi va ularning barchasini "yashil iqtisodiyot" ning o'zgarishlari sifatida qayta belgilashi mumkin. 2010 yildan boshlab Bretton-Vuds institutlari (xususan, jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi) biologik xilma-

¹ UNEP (2011), Yashil iqtisodiyot sari: Barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo'llari

xillikni baholash va yanada rasmiy va universal biologik xilma-xillikka o'tish niyatini bildirishdi. Bularni e'tiborga olgan holda emissiya va chiqindilarni kam emas, balki tubdan nolga tushirish nol emissiya tadqiqotlari va tashabbuslari tomonidan ilgari suriladi.

Yashil iqtisodiyot bu tugab borayotgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali odamlarning hayot sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan yaxlit dasturdir. U iqtisodiyotni tubdan yangisini shakllantirishni o'z ichiga oladi, foyda keltiradigan ishlab chiqarish va iste'mol shakllari va atrof-muhitga minimal salbiy ta'sir ko'rsatadigan aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot" ideal tarzda insoniyatni tabiat bilan muvozanat holatiga keltirishi kerak, bunda inson tabiatga undan olganicha qaytadi.²

Globalashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Xorijda bu o'tishni amalga oshiruvchi "yashil o'sish" iqtisodiy siyosati Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli (2030-yilgacha) rivojlanishi uchun strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan. Inqirozga qarshi salohiyat nuqtai nazaridan, eko-innovatsiyalar, yashil investitsiya va, umuman, yashil iqtisodiyot, bandlikni oshirish, ishsizlikni yumshatish, iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyatni rag'batlantirish va retsessiyadan tezroq chiqib ketish imkonini beradi. Eko-innovatsiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda, atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish va tabiiy resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanish orqali sezilarli va aniq o'sishga qaratilgan har qanday yangilik shakli sifatida ta'riflanadi, yashil iqtisodiyotning esa umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislari (UNEP) "yashil iqtisodiyot"ni iqtisodiy faoliyat sifatida hisobga olib, bu tushunchani keng tushunishni taklif etadi, ya'ni "yashil iqtisodiyot insonlarning farovonligini yaxshilaydi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytiradi" degan ta'rifni beradi. "Yashil iqtisodiyot"ning bu ta'rifi deyarli yaxshi ma'lum bo'lgan barqaror rivojlanish kontseptsiyasidan farq qilmaydi.³ Yana tor ma'noda, "yashil iqtisodiyot"ni ifloslantiruvchi moddalar va issiqxona gazlarining emissiyasini nazorat qilish va kamaytirish, iqlim o'zgarishini kuzatish va prognozlash, shuningdek, energiya va resurslarni tejash texnologiyalarini va qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanish tushuniladi. Bu binolar va inshootlarni harorat, namlik va shamol yukining keskin o'zgarishlaridan himoya qilish uchun texnologiyalar va materiallarni yaratish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi; ekologik toza mahsulotlar, shu jumladan, qishloq xo'jaligi (oziq-ovqat, tabiiy tolalar) va iste'mol tovarlarini(kimyoviy qo'shimchalarsiz tabiiy va tabiiy asosda dorilar va shaxsiy parvarish mahsulotlari) ishlab chiqarish, boshqacha aytganda, "yashil iqtisodiyot" iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga hayot sifatini

² Коданева С.И. От «коричневой» экономики к «зеленой». Российский и зарубежный опыт // Россия и современный мир. 2020. No 1. С. 46–66.

³United Nations Environmental Programme: Green Economy
//http://www.unep.org/greeneconomy/Portals/88/documents/research_products/briefingpapers/Ru_GE_HEALTH.pdf.
-Ñ. 2

va turmush sharoitini yaxshilashga ko'maklashadigan xo'jalik faoliyatining turlari va natijalarini o'z ichiga oladi.

Iqlim o'zgarishi, suv resurslaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini keskinlashtirib, aholi salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga tahdid solayotgani butun dunyoni tashvishga solmoqda. Bu xalqaro, mintaqaviy va milliy hamkorlik darajasini oshirishni talab qiluvchi murakkab vazifalardir. Ular, shuningdek, ushbu muammolarni keltirib chiqaradigan bevosita va uzoq muddatli tahdidlarni hal qiluvchi strategiya va rejalarini ishlab chiqishga intilayotgan siyosatchilarga katta qiyinchiliklar tug'diradi. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari ushbu masalalarni turli darajalarda hal qilib kelmoqdalar va Yevropa Ittifoqi –Markaziy Osiyo yangi hamkorlik strategiyasi doirasida atrof-muhit, suv va iqlim o'zgarishi masalalari hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi, degan xulosaga kelishdi.

So'nggi yigirma yil ichida dunyo iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, energiya, oziq-ovqat, suv va yaqinda global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bilan bog'liq bir nechta parallel inqirozlarni ko'rdi. UNEP bu hodisalarni kapitalning noto'g'ri taqsimlanishi bilan izohladi, bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy tarmoqlarni kuchaytiradi va tabiiy kapitalni qo'llab-quvvatlovchi barcha narsalarni zaiflashtiradi. Barqaror rivojlanish uchun bir qancha xalqaro tashkilotlar Yashil iqtisodiyot (GE) va Yashil o'sish (GG) kontseptsiyalarini yanada barqaror iqtisodiyotga o'tish uchun harakatga yo'naltirilgan yondashuvlar yoki "transport vositalari" sifatida ishlab chiqdilar.

Operatsion darajada yashil iqtisodiyot emissiya va ifloslanish, resurslar samaradorligi, biologik xilma-xillikni saqlash va ekotizim xizmatlari bilan bog'liq faoliyatning uchta asosiy yo'nalishiga sarmoya kiritish orqali daromad va bandlikni oshirish manbalaridan biri sifatida qaraladi. Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to'liq xarajatlarni hisobga olish rejimi. Aktivga zarar etkazgan yoki e'tiborsiz qoldiradigan tashkilotga ishonchli tarzda qaytariladi va uning majburiyatlari sifatida hisobga olinadi.⁴ Ushbu tadqiqotning dolzarbligi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning strategik vazifalaridan birini mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qilishni hal qilish zarurati bilan belgilanadi. "Yashil" iqtisodiyot sohasida ushbu muammoni hal qilish kichik "yashil" bizneslarning yangi amaliyotlarini shakllantirishni, muntazam ravishda baholashni taqozo etadi.

Yer transporti dunyoda CO₂ gazlarining atmosferaga eng ko'p chiqaradi buning oqibatida iqlim isib ketadi. Rivojlangan davlatlarda parnik gazlarining atmosferaga chiqarilishi juda tez ko'payib bormoqda. 2020 yili 25% bo'lgan bo'lsa, 2025 yilga kelib 30-35 % gacha, 2030 yilga kelib 80 % gacha bo'ladiyu shaxsiy avtomobillardan CO₂ gazini atmosferaga chiqarishni 1/4 qismigacha (25/75) bo'lmoqda (chiqarilmoqda). Shuning uchun yerdagi avtomobillarni elektrlashtirishni amalga oshirilmoqda. Masalan, Shvesiyada avtotransportdan chiqayotgan CO₂ gazini chiqishi normadan ham pastdir.

Dunyoda CO₂ gazini emissiyasi asosan sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi transporti va umumiy ovqatlanish shahobchalari hisoblanadi.

Mashinalar tirbandligi natijasida YaIMni 1% yo'qotilmoqda, bu holat transportni yo'lda qolib ketishi, yoki kechikib kelishi, ish vaqtini yo'qotilishi oqibatida yuz bermoqda.

⁴ <https://www.journals.uz/wp-content/uploads/2019/07/iqtisod-2019-01/54-60.pdf>

Ekologiyaga, ekosistemaga inson faoliyatining ta'sirini baholashda "uglerod izi" degan tushunchadan foydalaniladi.

"Uglerod izi" global tushuncha bo'lib, insonlar tomonidan, tashkilotlar, kompaniyalar, biznes tashkilotlar atmosferaga chiqarilayotgan hamma issiqxona gazlarining yig'indisiga aytiladi. CO₂ uglerod gazi (200 turdan ortiq) bo'lib, sayyoramizda bir yil davomida 55 milliard tonna (O'zbekistonda 320 million tonna) bo'lib, uning ta'sirida har yili 15 milliard tonna kislorod yo'qotilmoqda, atrof muhit ifloslanmoqda, bioxilma-xillik yo'qolib borayapti, hayvonot olamining tarkibiy tuzilishi o'zgarimoqda, iqlim o'zgarib global isish yuz bermoqda, tuproqda tabiiy unumdorligi qashshoqlashib borayapti, ichimlik suvi kamayib bormoqda, hosildorlik kamayib mahsulot va xizmatlar qimmatlashib boryapti, natijada tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat buzilmoqda. Sayyoramizda keyingi 150 yil ichida, tabiatda, iqlimda atrof muhitdagi o'zgarishlarga inson sababchi, demak hamma sababchidir. CO₂ emissiyasini normallashtirish uchun global yalpi ichki mahsulotidan 5% ini sarflash rejalashtirilmoqda.

Yashil makon umumxalq xarakati boshlanganligi toza havo manbaining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu buyuk harakatga har qancha to'xtalib yuzlab bet asoslangan fikrlar aytish mumkin. Bir so'z bilan aytganda aholi sog'lig'ini mustahkamlab, farovonlikni yanada rivojlantiradi. Shahar va qishloqlarda go'zal manzara barpo qiladi.

Adabiyotlar;

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: O'zbekiston, 2009- 40b.
2. «Tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O'zbekiston, 1991.
3. «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O'zbekiston, 1995
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-4567-sonli 2020 yil 17-yanvar
8. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-4411-sonli 2019-yil 31-iyul
9. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-4047-sonli 2018-yil 4-dekabr;
10. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-3616, 2018-yil 20-mart, PQ-3910-sonli 2018-yil 24-avgust,
11. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 2017-yil 11-avgust, PQ 3472-sonli 2018-yil 12-yanvar,

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

12. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori PQ-2856-sonli 2017 yil 29-mart.
13. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston startegiyasi", Toshkent-2021 yil.0
14. "O'zbekistonda kichik tadbirkorlik 2017-2020". Toshkent -2021 yil.
15. Э.Б.Рубинов «Технология шелка (кокоматание): учебник для вузов – М.:Легная 1 пищевая»
16. Abdullayev O.,Toshmatov Z.,O'zbekiston ekologiyasi bugun va ertaga. Toshkent. Fan 1992
17. Проветов Г.И. Международный Бизнес: задачи и решения: Учебное-практическое пособие. —М.: «Альфа-Пресс», 2009. — 160 с.
18. Цвиркун АД., Акинфиев В.К. Бизнес план. Анализ инвестиций. Методы и инструментальные средства,- 2-е изд., перераб. и доп,- М.: Ось-89, 2009. - 320 с.